

ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDA AYOL TIMSOLI VA MILLIY MENTALITETNING AKS ETISHI

Boltayeva Barnoxon Botir qizi

Mustaqil izlanuvchi,

UrDu Urganch RANCH universiteti o'qituvchisi.

barnoxonboltayeva8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18304440>

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek nasrining yorqin vakillaridan biri Zulfiya Qurolboy qizi ijodida ayol timsolining badiiy talqini hamda milliy mentalitetning aks etish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida "Ayol", "Momo Havo", "Mashaqqatlar girdobi", "Yolg'izlik qurboni", "Armon asirasi" kabi asarlardagi ayol obrazlari badiiy-estetik, axloqiy va psixologik jihatdan tahlil qilinib, yozuvchining ayol tabiatini idealizatsiyalashdan ko'ra uni hayotiy ziddiyatlar ichida haqqoniy tasvirlashga intilishi asoslab beriladi. Maqolada Zulfiya Qurolboy qizi ijodida ayol timsoli milliy mentalitet, axloq, bag'rikenglik va ma'naviy jasorat ifodachisi sifatida talqin etilgani ilmiy xulosalar bilan asoslanadi.

Kalit so'zlar: zamonaviy o'zbek nasri, ayol timsoli, milliy mentalitet, badiiy talqin, oilaviy qadriyatlar, ma'naviy jasorat.

Abstract. This article examines the artistic interpretation of the female image and the reflection of national mentality in the works of Zulfiya Qurolboy qizi, one of the prominent representatives of contemporary Uzbek prose. In the course of the study, female characters in such works as "Ayol", "Momo Havo", "Mashaqqatlar girdobi", "Yolg'izlik qurboni", and "Armon asirasi" are analyzed from artistic-aesthetic, ethical, and psychological perspectives. The analysis demonstrates that the writer tends not to idealize female nature, but rather strives to depict women realistically within the context of life's contradictions. The article substantiates, through scholarly conclusions, that in Zulfiya Qurolboy qizi's oeuvre the female image is interpreted as an embodiment of national mentality, morality, tolerance, and spiritual courage.

Keywords: contemporary Uzbek prose, female image, national mentality, artistic interpretation, family values, spiritual courage.

Аннотация. В данной статье рассматриваются художественная интерпретация женского образа и отражение национального менталитета в творчестве Зульфии Куролбой кизи, одной из ярких представительниц современной узбекской прозы. В ходе исследования женские образы в произведениях «Ayol», «Momo Havo», «Mashaqqatlar girdobi», «Yolg'izlik qurboni» и «Armon asirasi» анализируются с художественно-эстетической, нравственно-этической и психологической точек зрения. Анализ показывает, что писательница не склонна к идеализации женской природы, а стремится к реалистическому изображению женщины в контексте жизненных противоречий. В статье на основе научных выводов обосновывается, что в творчестве Зульфии Куролбой кизи женский образ интерпретируется как воплощение национального менталитета, нравственности, терпимости и духовного мужества.

Ключевые слова: современная узбекская проза, женский образ, национальный менталитет, художественная интерпретация, семейные ценности, духовное мужество.

KIRISH. Muallifning nuqtai nazari badiiy yaratilgan sirtida turmaydi, balki asarning ichki to'qimasiga singdirib yuborilgan bo'ladi. Tarbiyaviy-axloqiy funksiya ham adabiyotning muhim vazifalaridan sanaladi.

Badiiy adabiyot inson ruhiyati, tafakkuri, sezimlari, irodasi va tasavvur olamiga hech qanday zo'rovlarisiz mutlaqo erkin tarzda juda kuchli ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega. Shuning uchun ham u insondagi dunyoqarash, axloq, e'tiqod, siyosiy va badiiy qarashlar tizimi singari shaxslikka doir xususiyatlarni shakllantirishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Adabiyotning yuksak namunalari o'z davrining buyuk ruhiy yilnomalarigina bo'lib qolmay, eskirmas va nuramas tarbiya vositasi ham sanaladi. Bu hol, ayniqsa, islomiy e'tiqoddagi xalqlarning adabiyotida alohida bo'rtib ko'zga tashlanadi. Zero, islomiy uluslarda "adabiyot" atamasi "odob" so'zidan olingani masalaning mohiyatini teranroq anglash imkonini beradi. Lekin alohida ta'kidlash kerakki, adabiyotning bu vazifasini oddiy nasihatbozlik, ochiq o'gitchilik tarzidagina tushunish hodisa mohiyatini jo'nlashtirishning belgisidir.[1]

Adabiyot har bir millat madaniyati va urf odatlarini, o'ziga hosligini ko'rstata oladigan ko'zgu deyish bu o'rinda aslo mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda o'zbek hikoyachiligida boshqa janrlarga nisbatan ko'proq qalam tebratilmogda. X. Do'stmuhammad, N. Eshonqul, I. Sulton, L. Bo'rixon, A. Yo'ldoshev kabi yozuvchilar qatorida Zulfiya Qurolboy qizi ham milliy proza taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Zulfiya Qurolboy qizi hikoya va romanlari o'zbek adabiyotida qiziqarli, hayot haqiqati va inson tabiatini ishonarli ifodalovchi asarlar sifatida ajralib turadi. Ular hayotning murakkab masalalarini dadil ko'taradi.

METODOLOGIYA. Z.Qurolboy qizining ijodiy yetukligini o'z ijodiy faoliyatiga kirgan paytidan boshlab hozirgi kungacha o'rganish orqali, uning nasriy asarlaridagi o'ziga xosliklar, yutuqlari va kamchiliklarini ko'rsatishga harakat qilingan. Z. Qurolboy qizining nasrining yana bir muhim xususiyati shundaki, u haqiqatan ham mukammal romanlar yaratish uchun ijodiy izlanishlar olib bormogda. Uning ko'plab hikoyalari go'zal va ta'sirchan nasrga intilish uchun eng yaxshi sabablaridan biri sifatida e'tirof etilishi lozim. Turli jurnal va saytlar hamda kutubxonalardan topish mumkin bo'lgan qisqa hikoyalar bugungi zamon o'quvchilarida katta qiziqish uyg'otadi, chunki ular qisqa lo'nda va hayot haqiqatini muallif nima demoqchi ekanligini o'quvchiga tez yetib borishida katta ahamiyat ko'rsatadi. Ushbu yozuvchining, ayniqsa ayol timsoli tasvirlangan hikoyalar ushbu maqolamizning asosiy mavzusi hisoblanadi.

Ayol - bu ona, opa, singil, rafiqqa yoki do'st va u zamonaviy adabiyotda turlicha obrazlarda gavdalanitirilmogda. Ana shu obrazlar orqali biz ayol timsolining ochilmagan qirralarini uning ko'ngil kechinmalarini, hayot tarzi va jamiyatdagi tutgan o'rnini yangicha talqinlarda tanihqdamiz. Zulfiya Qurolboy qizi ijodidagi "Ayol", "Yolg'izlik qurboni", "Yo'zsiz yil", "Ikki manzil", "Kasal qush", "Mashaqqatlar girdobi" hikoyalari o'zbek ayolini kashf etishga yordam beradi. Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" hikoyasidagi Nazokat obrazi orqali yozuvchi ayol hayotining biz unchalik e'tibor bermaydigan jihatlariga ahamiyat qaratishga undaydi. Ushbu hikoyada Nazokat kasalmand bo'lib uning ruhiy holati va ko'ngil kechinmalari o'z tilidan emas balki syujet va badiiy asar ekspozitsiyasi tasviri bilan yoritiladi.

TAHLIL. Zulfiya Qurolboy qizi ham qahramon ruhiy dunyosini badiiy yo'sinda tasvirlashda monolog va dialog nutqlar orqali, shu bilan bir qatorda vaziyat taqazosi va mazmuniy mantiq asosida badiiy yuk vazifasini bajaradigan detallar orqali tasvirlab berishga harakat qiladi.[2]

Asar ekspozitsiyasi tasvirida kasalxonaning devorlari oppoq ekanligi huddi nazokatning rangsiz va so'lgan yuziga o'xshatilgan, derazadan xonaga tushib turgan zarrin quyosh nuri esa uning bugun ham tirik ekani, yangi kunni kutib olganiga shukr aytishi asar ekspozitsiyasini yanada boyitadi.

“Deraza oynasiga to‘kilayotgan oppoq nur ayolning yumuq qovoqlarini qizartirdi, jilva qildi, yanoqlariga ilingan marvarid tomchilarida va barmoqlaridagi uzukning olmos ko‘zchalarida aks etdi”. “Shu’la shu lahza karovatda yotgan xushbichim va go‘zal ayol yuzida jilva qildi, qovoqlarini qizartirmoqchi bo‘ldi, lekin tosh qotgan qovoqlar qilt etmadi, shu’la o‘ziga qadrdon qorachiqalarda akslanmoqni istadi, ammo ularni topa olmadi, u faqat ayolning barmoqlarida paydo bo‘lib qolgan uzukning olmos ko‘zlaridagina aks eta oldi”. [3]

Asardan olingan ushbu jumlar o‘quvchini tasirlantirmasdan qolmaydi. Yozuvchi Nazokatning olamdan o‘tganini hatto quyosh nurlari ham uning tosh qotgan qovoqlarini ocha olmasligini mahorat bilan tasvirlaydi. Muallifning qalami hech kimni ayab o‘tirmaydi u faqat ayol obrazini ulug‘lamaydi va illatlardan holi bo‘lmagan hayotda o‘z yo‘lini yo‘qotgan ayollarni ham ayamadan tasvirlaydi. Jumladan, “Mashaqqatlar girdobi” asaridagi Sanobar va Gulruh obrazlarini olaylik. Sanobar befahm, tepsa-tebranmas, surbet, xunuk semirib ketgan, yoshiga nisbatan qari ko‘rinadi. Gulruh andishali, tortinchoq, pazanda, odamiy, aslidagidan ancha yosh ko‘rinadi. Adabiyotda ayol hamisha nafosat, mehribonlik va shafqat timsoli sifatida tasvirlib kelingan. Ammo “Ayol”, “Momo Havo”, “Muhabbat va nafrat”, “Gunoh”, “Armon asirasi” asarlarida ayollar o‘z tabiatlaridan kelib chiqqan holda eng qora, jirkanch bo‘yoqlarda tasvirlangan. Xususan, “Momo Havo” hikoyasidagi Nafosat obrazi o‘zbek adabiyotida yangilik deb atash mumkin bo‘lgan salmoqqa, badiiy yukka ega. O‘qirman hikoya so‘ngiga qadar Akbar bilan birga Nafosatni suyadi, unga topinadi, har soniyada undan minnatdor bo‘ladi, yaxshi ham shunday ayollar bor degan taskin bilan ko‘ngliko‘tariladi, Akbarning taqdiridan xotirjam bo‘ladi, uning nogiron qizi ko‘chada qolmaydi, uni Nafosat tuzatib yuboradi degan ishonchda yuradi, hatto Akbardek ichkilikboz, mas‘uliyatsiz, irodasiz, o‘zini tiya olmaydigan insonga taqdir Nafosat betakror, aqlli, andishali, fidokor, chinakam o‘zbek ayolini ro‘baro qildi ekan, deya yozg‘iradi ham. Ammo hikoya so‘ngidagi birgina “samimiyat o‘pirilib tushgandi...” jumlasini yuqoridagi qanoatlarning barchasini yo‘qqa chiqaradi, sokin, xotirjam holdagi kitobxonni halovat og‘ushidan beshafqat, muzdek oqim bag‘riga tashlaydi. [4]

“Armon asirasi” romanidagi Nasiba eri Donishning o‘limidan so‘ng jinsiy ehtiyojni xayoliga mutlaqo keltirmagan holda, qo‘pol va bezori kimsa Talgatga ayollik mehrini bag‘ishlab, uni ham jismoniy xastalikdan, ham miyasiga o‘rnashib qolgan yovuzlik niyatidan xalos etadi. Eri tashlab ketib beva qolgan Hulkar Armon ham hayotda, ham ijodda pokiza axloqini namoyon qiladi. Bu borada o‘zi namuna ko‘rsatibgina qolmay, balki yomon yo‘lga kirib ketgan Nasiba va Zuhriani izlab topib, tanbeh beradi. Yoki “Mashaqqatlar girdobi”ga tushib qolgan Gulruh o‘zining tashqi go‘zalligi bilan emas, balki axloqiy pokizaligi, muomalasining shirinligi bilan nafaqat mardikorlarning, ayni chog‘da, butun vujudidan “allaqanday yovuzlik hidi keladi” gan Po‘lat Damirovichni ham, qo‘lini qayoqqa uzatsa yetadigan boshliq Hakim Nazarich ham tiz cho‘ktiradi. Bu ayollar o‘zlarining axloqiy go‘zalligi bilan o‘zgalar axloqining o‘zgarishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadilar. [5]

NATIAJALAR. Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida zamonaviy ayol va uning badiiy-estetik funksiyasiga, ayniqsa, milliy qadriyat sifatida oilaviy an‘analarni saqlab qolish, turli g‘oyaviy tazyiq, vaqtinchalik hoyu havaslarga berilgan erkaklarga nisbatan bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lish, o‘zining azaliy vazifasi –avlodlar davomiyligini saqlash, ularni ma‘nan sog‘lom bo‘lib voyaga yetishi hamda o‘tish davrida oila a‘zolari ongida yuz bergan o‘zgarishlarni avlodlar hayotiga ta‘sir etmasligiga harakat qilishi yoritilgan. Natijada ma‘nan jasoratli ayollarning badiiy tasvirini yaratishga erishilgan. [6]

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Zulfiya Qurolboy qizi ijodi o'zbek adabiyotida ayol timsolini yangi badiiy-estetik bosqichga olib chiqqan hodisalardan biri sifatida baholanishi mumkin. Yozuvchi asarlarida ayol nafaqat mehribon ona yoki sadoqatli rafiq, balki murakkab ruhiy kechinmalarga ega, ijtimoiy muhit ta'sirida sinovlardan o'tuvchi va ma'naviy jasorat ko'rsata oladigan shaxs sifatida gavdalanadi. Muallif ayol obrazlarini ideallashtirish yoki biryoqlama ulug'lashdan qochib, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini hayotiy haqiqat asosida yoritadi. Zulfiya Qurolboy qizi hikoya va romanlarida milliy mentalitet, oilaviy qadriyatlar, axloqiy poklik, bag'rikenglik kabi tushunchalar ayol obrazi orqali chuqur badiiy ifodasini topadi.

Ayniqsa, ayollarning axloqiy go'zalligi orqali jamiyatdagi boshqa qahramonlar ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi yozuvchining asosiy g'oyaviy yo'nalishlaridan biri ekanligi aniqlanadi.

Natijada adiba asarlarida zamonaviy o'zbek ayolining murakkab, ammo ma'nan barkamol badiiy qiyofasi yaratilgan bo'lib, bu hol milliy adabiyotimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бадий асар таҳлили [Матн] / Қ. Ёўлдош, М. Ёўлдош. - Тошкент: «KAMALAK» ашриёти 016.-464 б.
2. S.Abdusalomov "Zulfiya Qurolboy qizi ijodida ayol timsoli" dissertatsiya Qarshi 2012
3. Z.Qurolboy qizi "Ayol" hikoyalar to'plami Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot 2019
4. Kamola Ibrohimovna Egamberdiyeva "Zulfiya qurolboy qizi asarlarida o'zbek ayoli ruhiyati tasviri" International scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2022, No 5 (46), 161-173.
5. Jo'rayeva M.Zamonaviy o'zbek nasrida yangi inson konsepsiyasi.Monografiya.T. "Mumtoz so'z" 2021-yil.
6. Solijonov Y. Ko'zgudagi hayot. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.2013. 55-60 betlar